

## **"OYBARAK" KANALI SUVI TARKIBIDAGI OG'IR METALLARNI ANIQLASH**

**Raximova D.A.** TerDU Kimyo fakulteti talabasi

**Tillayev X.R.** TerDU dotsenti, k.f. PhD.

**E-mail:** [abdurazokrahimov271@gmail.com](mailto:abdurazokrahimov271@gmail.com)

“To’polon” suv ombori - Surxondaryo viloyati o’ng irmog’i –To’polondaryo qurilayotgan yirik gidrotexnika inshooti . Surxondaryo viloyati Uzun tumanidan 1,5 km uzoqlikda joylashgan . Suv ombori qurilishi 1983- yilda boshlangan. Sug’orish va gidroenergetika maqsadlariga xizmat qiladi. Daryo suvini mavsumiy yig’adi , suv ombor o’zanli tibda . Tarkibida tosh-tuproqli to’g’on , suv chiqarish (300 m<sup>3</sup>/sek) va suv tashtama (120m<sup>3</sup>/sek ) inshootlari, GES (quvvati 175MVt) bor . loyihaga ko’ra to’g’onni uz. 410 m ,bal. 180 m, to’liq sig’imi 500 mln . m\foydali sig’imi 470 mln ni tashkil etadi. “Oybarak” kanaliga “To’polon” suv omboridan suv keladi . Kanal suvi yoz kunlarida ham muzday yahna bo’ladi, qancha istemol qilinsa ham tomoq o’g’rimaydi , chuchuk ta’imli suv hisoblanadi.

"Oybarak" kanalining manbai "To'polon " suv ombori hisoblanadi. Bu kanal Surxondaryo viloyatining to'rtta tumanidan oqib o'tadi (Saraosiyoy, Denov, Oltinsoy va Sho'rchi). Qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orishda, aholi ichimlik suvi hamda turli xildagi kichik korxonalar ishlab chiqarilishida suvdan foydalaniladi. Ushbu suv tarkibida turli xildagi minerallar , inson organizmi uchun foydali bo'lgan og'ir metallar (Cu, Ag, Zn, Cd, Mn va boshqalar) mavjud. Men suvdan namuna olib kelib, uni ekstraksiya usulida tarkibini o'rganib chiqdim va poliografiyada tekshirdik, tadqiqotlarim natijasiga ko'ra suv tarkibida quyidagi metallar borligini aniqlandi .

<b>T/r</b>	<b>Metall nomi</b>	<b>Mg/kg</b>
1	Fe(II)	0,021
2	Cu	0,0,18
3	Cd	0,016
4	Zn	0,0153
5	Mn(II)	0,0089
6	Fe(III)	0,0047
7	Ag	0,0009
8	Hg	0,00032

Keyingi yillarda insonlar e’tiborsizligi sababli suv o’zanlari, daryolar va kanallarga turli xildagi maishiy chiqindilar tashlanib suv ifloslantirilmoqda.